

Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortish ma'muriyatchiligining iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'sirini tahlili

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi **PhD D.J.Babajanov***

***Annotasiya.** Mazkur maqola foyda solig'i bilan bog'liq soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga bag'ishlangan. Foyda solig'i davlat uchun muhim daromad manbai bo'lib, samarali soliq ma'muriyatchiligi byudjet daromadlarini samarali yig'ish va soliq to'lovchilar tomonidan rioya etilishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu tahlil jarayonni soddalashtirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida takomillashtirilishi mumkin bo'lgan soliq ma'muriyatchiligining turli jihatlarini o'rganadi.*


***Kalit so'zlar:** soliq, foyda solig'i, soliq tushumlari, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, soliq munosatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki.*

Kirish.

Jahonda tobora keskinlashib borayotgan global raqobat sharoitida mamlakatlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib, bu soliq-byudjet tizimining samaradorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning barqarorligi va ularning daromadlar bazasini mustahkamlashning dolzarbligini oshirmoqda. "Foydani soliqqa tortish bevosita soliqqa tortish amal qilishining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, ya'ni soliqlarning fiskal funksiyasini bajarish maqsadida xo'jalik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish ro'y beradi. Uzoq yillar davomida foyda solig'i byudjet soliq daromadlarining ahamiyatli qismini shakllantirib, tashkilotlarning rivojlanishida muhim tartibga soluvchi rolni o'ynaydi". Jahon iqtisodiyotida huquqiy jihatdan shakllantirilgan korporativ soliq stavkalari korporatsiyalar duch keladigan asosiy soliq stavkasi hisoblanib, bu yuridiksiyalarni hisobga olgan holda va vaqt o'tishi bilan korporatsiyalar uchun standart soliq stavkalarini taqqoslash uchun qo'llanilishi mumkinligini anglatadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rag'batlantirish, erkin raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash va barcha tadbirkorlik subyektlari uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan soliq tizimini joriy qilishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda, korxonalar foydasini soliqqa tortish borasida amalga oshirilgan islohotlarni alohida qayd etish lozim. Bunda foydadan olinadigan soliq yukini kamaytirish, qo'shimcha soliq turlarini qisqartirish, foyda solig'ini hisoblab chiqarishni soddalashtirish va soliq stavkalarini optimallashtirishga e'tibor berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyulda qabul qilingan PF-5116-sonli

Farmoniga asosan 2018-yildan korxonalarining sof foydasidan 8 foiz miqdorida undiriladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i foyda solig'i bilan unifikatsiya qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda qabul qilingan PF-5468-sonli Farmoni bilan mamlakatimiz soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, 2019-yildan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizga, tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizga pasaytirildi, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib foyda solig'ini hisoblash tartibi, sement (klinker) va polietilen granular ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun qo'shimcha foyda solig'i bekor qilingan holda foyda solig'i stavkasi 20 foizga oshirildi. 2022-yilga kelib foyda solig'i stavkasi 15 foizga kamaytirildi ya'ni soliq yukini kamaytirish islohotlari olib borilmoqda.




1-rasm. 2018-2022-yillarda foyda solig'i stavkalarining dinamikasi¹

Foyda solig'i stavkalari dinamikasini 1-rasm ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, foyda solig'ining asosiy stavkasi 2018-yilda 14,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda 12 foizga kamaygan. 2022-yilda 15 foizni tashkil etgan holda 2018-yilga nisbatan 1 foizga oshgan. Shuningdek, banklar uchun foyda solig'i stavkasi 2018-yilda 22 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 20 foizga kamaygan. Foyda solig'ining asosiy hamda banklar uchun stavkasining 2018-yilda 2022-yilga kamayishiga sabab korxonalarining soliq islohotlarini olib borilishida soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlariga yengillik yaratish hisoblanadi. Ushbu davrda foyda solig'i stavkasi oshgan bo'lsada, korxonalar foydasidan olinadigan soliq miqdori kamaygan.

¹ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Auksionlar o'tkazishdan va ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasi 2019-2022-yillarda 15 foizga ya'ni 5,0 barobarga kamaydi.

Foyda solig'i stavkasining kamayishini mazkur korxonalar uchun 2019-yildan asosiy stavkaning joriy qilinishi bilan izohlashimiz mumkin. Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasi 2018-yilda 26 foizni tashkil etgan. 2016-yildan boshlab mazkur korxonalar uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib foyda solig'i hisoblanishi belgilandi. Natijada foyda solig'i stavkasi uyali aloqa kompaniyalari (rentabellik daraja 30%) uchun 26 foizga oshdi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining foyda solig'i bilan unifikatsiya qilinishi natijasida 2018-yilda foyda solig'i stavkasi 26 foizga oshdi. Ushbu soliq to'lovchilar uchun 2019-yildan rentabellik darajasidan kelib chiqib foyda solig'i hisoblash tartibi bekor qilindi va soliq stavkasi 20 foizga pasaytirildi. Sement (klinker) va polietilen granularlar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilarga 2018-2022-yillarda foyda solig'ining asosiy stavkasi bo'yicha soliq solingan. Shuningdek, ushbu davrda qo'shimcha foyda solig'i undirilgan. Mazkur soliq to'lovchilar uchun 2019-yildan qo'shimcha foyda solig'i bekor qilindi va foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 20 foizga oshirildi. Keyinchalik foyda solig'i stavkasi 15 foizga kamaytirildi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2018-2022-yillarda foyda solig'i stavkalari optimallashtirildi va foydadan olinadigan soliq turlari qisqartirildi.



2-rasm. 2018-2022-yillarda foyda solig'i to'lovchilar sonining dinamikasi²

Shuningdek, foydadan olinadigan soliq miqdori kamaytirildi. Foyda solig'ining to'lovchilari mamlakatimizning soliq rezidentlari bo'lgan yuridik

² Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

shaxslar hamda faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki davlatimizdagi manbalardan daromad oluvchi norezidentlar hisoblanadi. Foyda solig'i to'lovchilar sonining o'zgarishini 2-rasmda ko'rishimiz mumkin.

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, foyda solig'i to'lovchilar soni 2015-2018-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2018-yilda 7 525 tani tashkil etib, 2015-yilga nisbatan 4 866 taga kamaygan. Foyda solig'i to'lovchilar soni 2019-yilda keskin o'sgan ya'ni 48 838 tani tashkil etgan holda 2018-yilga nisbatan 6,5 barobarga, 2015-yilga nisbatan esa 4,0 barobarga oshgan. Foyda solig'i to'lovchilar sonining keskin oshishining asosiy omili soliq siyosati konsepsiyasi doirasida yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan korxonalarining umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazilganligi hisoblanadi. Keyingi yillarda foyda solig'i stavkalarining optimallashtirilganligi, foydadan olinadigan soliqlarning qisqartirilganligi, foydaga soliq solish soddalashtirilganligi hamda umumbelgilangan va soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish takomillashtirilganligi natijasida foyda solig'i tushumi 2022-yilda 16 360,5 mlrd. so'mga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish konsepsiyasi loyihasida korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar bo'yicha o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash lozim. Sababi, mazkur o'zgarishlarning afzalliklari ko'proq. Jumladan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq turlari qisqaradi, soliqlarni hisoblab chiqarish soddalashadi, soliq solinadigan baza unifikatsiya qilinadi, soliq yuki kamayadi, foydaga ikki marta soliq solinishining oldi olinadi. Korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar bo'yicha o'zgarishlarning budjet daromadlariga ta'siri bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, bu dividend solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazaning belgilanishiga bog'liq.

Xulosa va takliflar.

Foyda solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish tahlili bo'yicha takliflar Aniqlikni oshirish va noaniqlikni kamaytirish uchun foyda solig'i qonunlari va qoidalarining murakkab qoidalarini ko'rib chiqing va soddalashtiring. Keraksiz byurokratik tartib-qoidalarni bartaraf etish va soliq to'lash va hisobot berish talablarini soddalashtirish lozim.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

- Mardiasmo D. (2013) Taxation, Publisher Andi, Revision Edition, – p. 55.
- Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.
- Tashmuradov T. (2004) Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. –T.: Bilim., -320 b.
- Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.